



O'QUVCHILARGA INGLIZ TILIDAGI "AT", "IN" VA "ON" VAQT PREDLOGLARINI OSONROQ USULLARDA TUSHUNTIRIB O'RGATISH.

Aslonova Munisa

G'ijduvon tuman 1-son texnikumi ingliz tili fani o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili grammatikasidagi keng tarqalgan mavzulardan biri vaqt predloglari haqida bo'lib, bu predloglarning murakkabliklari va ularni o'quvchilarga o'rgatishning samarali usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Vaqt predloglari, on, in, at, teskari piramida metodi, uzun muddat, qisqa muddat, vaqt.

Hozirgi kunda respublikamizda tillarni o'qitish va til sertifikatlarini olish masalasida katta e'tibor berilmoqda. Til o'rganishda albatta tilning grammatik xususiyatlarini o'rganish asosiy o'rinda turadi. Ingliz tili grammatikasi ham o'ziga yarasha qiyinchiliklariga ega o'zbek tili va ingliz tillari bir biridan ancha farq qiladigan til oilasiga mansubligi tufayli ba'zi mavzularni o'rganish, ularni yodlash yoki nutqda qo'llashda o'quvchilar qiyinchiliklarga duch keladi. Shunday mavzulardan bittasi bu vaqt predloglari hisoblanadi.

Pedagog sifatida o'quvchilarga ingliz tili grammatikasini o'rgatish paytida o'quvchilar predloglar mavzusida ancha qiynalatotganini ko'rdim. Ularning ba'zilari predloglarni shunchaki yonida birga kelgan so'zlar bilan birglikda yodlashadi lekin ko'p chalkashishadi, ayrim o'quvchilar yod olishga ham qiynaladi, eslab qolganidan keyin ham ko'p vaqt o'tmasdan yana xato qo'llab yuborishadi. Bir necha marta shu predlog mavzusini tushuntirganimdan keyin o'zim ham bu predloglarni anglashga osonroq qilib ularni saralash mumkinligini tushundim va bu usul o'zim uchun yangi kashfiyot bo'ldi. O'quvchilarni o'zlashtirishi ancha



yaxshilandi, eslab qolishda qiynalishi yoki testlarda bu kabi vaqt predloglari mavzusining natijalari ancha yaxshilandi. Keyinchalik internet manbaalari yoki suniy intellekt vositalari yordamida qo'shimcha ma'lumotlar o'rganganimda vaqt predloglarini o'rgatish yoki o'rganishni oson usuli borligi va uni "Teskari piramida" deb nomlanishini bilib oldim, bu esa o'zim uchun kashf qilgan o'rgatish usulini yanada mustahkamladi.

O'quvchilar o'rganish mobaynida "In Monday" yoki "On Summer" yoki "In Monday morning" kabi xato birikmalar ishlatishadi. Bu esa meningcha mohiyatini anglamagan holda yod olishning natijasi hisoblanadi.

Ingliz tilidagi "At", "On" va "In" predloglarini hammasi o'zbek tilda "-da" qo'shimchasi kabi tarjima qilinadi, masalan: "On Sunday" – yakshanba kunida, "At 8 o'clock"- soat 8 da, "In 1996"- 1996-yilda, "At midnight"- yarim tunda. Hammasi –da shaklida tarjima qilinadi, lekin qaysi vaqt uchun qaysi bir predlogni ishlatishni chalkashtirmay o'rganib olish keyinchalik ham eslab qolish muhim. Ingliz tili grammatika o'rganuvchilar orasida keng qo'llangan "Round-up 1" kitobida ham birinchi "In" predlogi bilan keldigan so'zlar, masalan: "in the morning", "in November", "in summer" kabi so'zlar berilgan; keyingi ustunda esa "At" predlogining ishlatilishi: "at 8 o'clock", "at the moment", "at noon"; uchinchi o'rinda esa "On" predlogi va u bilan birga ishlatiladigan so'zlar keltirilgan: "on Sunday", "on October 4th", "on Sunday afternoon" kabi. Lekin shu predloglarni qisqa, o'rta va uzun vaqt oralig'lariga ajratib olish eslab qolishga katta yordam beradi. Bu bosqichda mustasno holatlar ham mavjud, shu mustasnalarga ham e'tibor berish muhim.

O'rgatish uchun birinchi o'rinda "At" predlogini olsak bu predlog asosan qisqaroq muddatlar uchun ishlatiladi, masalan: soatlar, daqiqalar, sutkaning ma'lum bir qismlariga nisbatan.

-at 8 o'clock- soat 8da;



-at the moment- ayni daqiqada;

-at noon- peshinda ya'ni kunduzgi 12:00;

-at midnight- yarim tunda ya'ni kechgi soat 00:00;

- at the weekend- hafta oxirida.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, "at the weekend- hafta oxirida" so'zini hisobga olmaganda hammasi asosan bir soatlik muddatni ifodalaydi. Bundan tashqari "At Chismas" yoki "At New Year" kabi bayram nomlari ham bor lekin bular qisqa fursat emas shuning ularni mustasno holatda eslab qolish kerak.

Keying o'rinda "On" predlogini qo'yish kerak va bu predlog asosan o'rtacha uzunlikdagi muddatlar uchun ishlatiladi, masalan:

-On Sunday- yakshanba kunida;

-On Monday- dushanba kunida;

On October 4th- 4-oktabrda;

-On Sunday afternoon.

Ko'rinib turibdiki, "On" bilan asosan bir kun, bir sutka hisobidagi muddatlar hafta kunlari yoki sanalar ishlatiladi, lekin bu predlogda ham ba'zi bir mustasno holatlar bor masalan, kun qismlari "night"- "tun" so'zi yolg'iz holda kelsa u "At" predlogi bilan ishlatiladi lekin u hafta kunlari bilan birga kelsa o'sha hafta kuniga tegishli bo'lgan predlogga bo'ysunadi, masalan: "On Monday night" yoki "On Sunday morning".

Eng uzun va katta vaqt birliklari bilan "In" predlogi ishlatiladi. Bularga misol, yillar, oylar, fasllar va asrlar kiradi. Ammo bu holatda ham mustasnolar bor. Kun qismlari "Morning" -"Ertalab", "Afternoon"- "tush payti" va "Evening"- "Kechgi



payt” kun qismlari qisqa muddat bo‘lishiga qaramasdan mustasno sifatida ular “In” predlogi bilan ishlatiladi.

- In the morning- ertalab;
- In the afternoon- tush paytida;
- In the evening- kechgi paytda;
- In November- noyabr oyida;
- In the Summer- yozda;
- In 1992- 1992- yilda;
- In XX century.

O‘quvchilarga predloglarni shunchaki yodlash va unga oid mashqlarni bajarishni qayta- qayta vazifa qilib berishdan oldin ularga oldin shu usulda mantiqqa asoslanib tushuntirish samaradorlikni ancha oshiradi. Ularga tasavvur uyg‘otish kerak, masalan “teskari piramida” tamoyili bo‘yicha:

In: Keng va umumiy vaqt oralig‘i (Piramidaning tepa qismi).

On: Biroz aniqroq, ya’ni kunlar (O‘rta qism)

At: Eng aniq va qisqa vaqt nuqtasi (Piramidaning uchi)

Predloglar oddiy va kichik mavzulardan biri bo‘sa ham ular nutqni aniq va ravon bo‘lishini ta’minlashda muhim hisoblanadi.